



UDK: 378.147:811.111:37.017

Dilnoza QADIROVA,

Katta o'qituvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

E-mail: mkdilnoz.qodirovaxon@gmail.com, ORCID: 0009-0001-6678-5563

NamDChTI, dotsenti, p.f.f doktori (PhD), Q.Valiyev taqrizi asosida

PRACTICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF NATIONAL AND UNIVERSAL CULTURAL COMPETENCIES IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Annotation

This article analyzes the practical state of formation of national and universal cultural competencies in future English language teachers. The study focuses on identifying students' initial knowledge, skills and attitudes related to national values, intercultural communication, speech etiquette, sociolinguistic situations and pedagogical decision-making. The research is based on questionnaire, interview, observation and diagnostic analysis methods. The results show that a considerable part of students need systematic methodological support to express national values in English, understand universal cultural principles and choose appropriate communicative strategies in intercultural contexts. The article substantiates the necessity of improving these competencies through sociolinguistic case-study technology.

Key words: Future English language teacher, national competence, universal cultural competence, intercultural communication, sociolinguistic situation, case-study technology, pedagogical analysis, communicative strategy.

ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СФОРМИРОВАННОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье анализируется практическое состояние сформированности национальных и общекультурных компетенций у будущих учителей английского языка. Основное внимание уделено выявлению исходного уровня знаний, умений и отношений студентов, связанных с национальными ценностями, межкультурной коммуникацией, речевым этикетом, социолингвистическими ситуациями и принятием педагогических решений. В исследовании использованы методы анкетирования, беседы, наблюдения и диагностического анализа. Полученные результаты показывают необходимость системного методического сопровождения студентов в выражении национальных ценностей на английском языке, понимании общекультурных принципов и выборе адекватных коммуникативных стратегий в межкультурных ситуациях. В статье обоснована необходимость совершенствования данных компетенций на основе социолингвистической технологии case-study.

Ключевые слова: Будущий учитель английского языка, национальная компетенция, общекультурная компетенция, межкультурная коммуникация, социолингвистическая ситуация, технология case-study, педагогический анализ, коммуникативная стратегия.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALAR SHAKLLANGANLIK HOLATINING AMALIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holati amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda talabalarning milliy qadriyatlar, umummadaniy tamoyillar, madaniyatlararo muloqot, nutq odobi, sotsiolingvistik vaziyatlar va pedagogik qaror qabul qilishga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda munosabatlarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida so'rovnomma, suhbat, kuzatish va diagnostik tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar talabalarning muayyan qismida milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalash, umummadaniy tamoyillarni anglash va madaniyatlararo vaziyatlarda mos kommunikativ strategiyani tanlash bo'yicha metodik yordamga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi. Maqolada mazkur kompetensiyalarni sotsiolingvistik case-study texnologiyasi asosida takomillashtirish zarurati asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, milliy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, sotsiolingvistik vaziyat, case-study texnologiyasi, pedagogik tahlil, kommunikativ strategiya.

Kirish. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat lingvistik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarning milliy va umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishni ham talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga yangicha yondashishni taqozo etadi [1]. Chunki zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi nafaqat til birliklarini bilishi, balki ularni madaniy, ijtimoiy, sotsiolingvistik va kasbiy-pedagogik vaziyatlarda to'g'ri

qo'llay olishi zarur. Milliy va umummadaniy kompetensiyalar ingliz tili o'qituvchisi faoliyatida ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular talabaning o'z milliy qadriyatlarini anglash, saqlash va xorijiy tilda ifodalashiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ular turli madaniyat vakillari bilan muloqotda bag'rikenglik, madaniy ochiqlik, kommunikativ moslashuvchanlik va pedagogik mas'uliyatni ta'minlaydi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mazkur kompetensiyalarning shakllanganlik holatini amaliy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holatini amaliy tahlil qilish, ularning dastlabki bilim, ko'nikma va munosabatlarini aniqlash hamda mazkur kompetensiyalarni takomillashtirish zaruratini asoslashdan iborat. Maqolada talabalarning milliy qadriyatlar, umummadaniy tamoyillar, madaniyatlararo muloqot, nutq odobi va sotsiologiyistik vaziyatlarga oid tayyorgarlik darajasi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi lingvodicatika, sotsiologiyistik, madaniyatlararo kommunikatsiya va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda chet tilini o'qitish faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni egallash bilan chegaralanmasligi, balki til orqali madaniyatni anglash, ijtimoiy vaziyatga mos muloqot qilish va qadriyatlarga hurmat bilan yondashishni ham qamrab olishi ta'kidlanadi [2]. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi D. Hymes, M. Canale, M. Swain va S. Savignon tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning qarashlarida tilni bilish faqat grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish emas, balki nutqni muayyan ijtimoiy vaziyat, suhbatdosh maqomi, kommunikativ maqsad va madaniy kontekstga mos tarzda qo'llash bilan izohlanadi [3]. Ayniqsa, sotsiologiyistik kompetensiya rasmiy va norasmiy muloqot, yosh, ijtimoiy mavqe hamda madaniy muhitga mos til birliklarini tanlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya masalasi M. Byram, C. Kramsch, G. Hofstede, E. Hall va D. Deardorff ishlarida alohida o'rin tutadi. M. Byram madaniyatlararo kompetensiyani boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro anglashuvga kirishish, madaniy tafovutlarni tushunish va o'z madaniy pozitsiyasini anglash qobiliyati bilan bog'laydi [5]. C. Kramsch esa chet tili ta'limida til va madaniyatni ajratib bo'lmashligini, til o'rganish jarayonida o'quvchi boshqa madaniyatni anglash bilan birga o'z milliy-madaniy tajribasini ham qayta idrok etishini ta'kidlaydi [6].

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy kompetensiya talabaning o'z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlari, muomala odobi va nutqiy xulq-atvorini anglashi hamda ularni xorijiy tilda ifodalay olish qobiliyati bilan bog'liq. Umummadaniy kompetensiya esa insonparvarlik, bag'rikenglik, madaniyatlararo hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, muloqot madaniyati va turli madaniy kontekstlarda moslashuvchan kommunikativ xatti-harakatni tanlashni qamrab oladi [7]. So'nggi yillarda chet tilini o'qitishda case-study texnologiyasidan foydalanish masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Case-study texnologiyasi real yoki shartli-real vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, sabab va oqibatlarini ajratish, muqobil yechimlar ishlab chiqish hamda qarorni asoslashga yo'naltirilgan interfaol ta'lim texnologiyasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tili ta'limida mazkur texnologiya talabalarning til bilimlarini amaliy vaziyatda qo'llash, madaniy va sotsiologiyistik omillarni hisobga olish va pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi [9].

Adabiyotlar tahlili natijasida aniqlanishicha, mavjud tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya, sotsiologiyistik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya va case-study texnologiyasi alohida-alohida yoritilgan bo'lsa-da, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy

kompetensiyalar shakllanganlik holatini amaliy jihatdan o'rganish masalasi yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holatini amaliy jihatdan aniqlash maqsadida diagnostik-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi talabalarning milliy qadriyatlar, umummadaniy tamoyillar, madaniyatlararo muloqot, nutq odobi, sotsiologiyistik vaziyatlar hamda pedagogik qaror qabul qilishga oid bilim, ko'nikma va munosabatlarini aniqlashga yo'naltirildi. Shu bois tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, so'rovnoma, suhbat, kuzatish, diagnostik baholash, taqqoslash va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kompetensiyaviy, lingvodicatik, sotsiologiyistik, madaniyatlararo va aksiologik yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy munosabatlarini yaxlit baholash imkonini berdi. Lingvodicatik yondashuv ingliz tili ta'limida til birliklari, nutqiy faoliyat va kommunikativ vazifalarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Sotsiologiyistik yondashuv esa talabalarning nutqiy vaziyat va madaniy kontekstga mos kommunikativ strategiyani tanlash qobiliyatini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda respondent sifatida filologiya va tillarni o'qitish, xususan, ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar jalb qilindi. Ularning milliy va umummadaniy kompetensiyalari shakllanganlik darajasini aniqlash uchun "Can do" mazmunidagi so'rovnoma, suhbat savollari va kuzatuv mezonlari ishlab chiqildi. So'rovnomalarda talabalarning milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalash, umummadaniy tamoyillarni anglash, madaniyatlararo vaziyatlarda o'z fikrini asoslash, sotsiologiyistik me'yorlarga rioya qilish hamda pedagogik vaziyatlarda mos yechim taklif qilish qobiliyatlari o'rganildi. Amaliy tahlil jarayonida talabalarning javoblari yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida so'rovnoma natijalari suhbat va kuzatuv ma'lumotlari bilan qiyoslandi. Bu esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holatini aniqroq baholash va mavjud muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining milliy va umummadaniy kompetensiyalari shakllanganlik holatini aniqlash maqsadida respondent talabalar o'rtasida so'rovnoma, suhbat va kuzatuv ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 617 nafar talaba jalb etilib, ulardan 346 nafari tajriba guruhi, 271 nafari nazorat guruhi sifatida belgilandi. Respondentlar Namangan davlat texnika universiteti, Andijon davlat texnika universiteti, Renessans ta'lim universiteti hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya va xorijiy tillar yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalaridan iborat bo'ldi [15]. Dastlabki diagnostik tahlilda talabalarning milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalash, umummadaniy tamoyillarni anglash, madaniyatlararo muloqotda mos nutqiy birliklarni tanlash, sotsiologiyistik vaziyatlarni farqlash hamda pedagogik vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalari baholandi. Natijalar yuqori, o'rta va past darajalar asosida umumlashtirildi.

1-jadval

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining milliy va umummadaniy kompetensiyalari shakllanganlik darajasining dastlabki natijalari

Guruhlar	Respondentlar soni	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Tajriba guruhi	346	28 nafar - 8 %	145 nafar - 42 %	173 nafar - 50 %
Nazorat guruhi	271	22 nafar - 8 %	114 nafar - 42 %	135 nafar - 50 %
Jami	617	50 nafar - 8 %	259 nafar - 42 %	308 nafar - 50 %

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, respondent talabalarning atigi 8 foizida milliy va umummadaniy kompetensiyalar yuqori darajada shakllangan. Bu guruhdagi talabalar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, nutq odobi va madaniyatlararo muloqotga oid tushunchalarni ingliz tilida nisbatan erkin ifodalashga, kommunikativ vaziyatga mos nutqiy birliklarni tanlashga hamda pedagogik vaziyat yuzasidan asosli fikr bildirishga qodir ekanligi bilan ajralib turdi. Respondentlarning 42 foizida mazkur kompetensiyalar o'rta darajada shakllanganligi aniqlandi. Bu toifadagi talabalar milliy va umummadaniy tushunchalar haqida umumiy bilimga ega bo'lsalar-da, ularni ingliz tilida izchil, dalillangan va sotsiolingvistik vaziyatga mos holda ifodalashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar.

Tahlil natijalariga ko'ra, respondentlarning 50 foizida milliy va umummadaniy kompetensiyalar past darajada shakllangan. Bu holat talabalarning yarmida milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalash, umummadaniy tamoyillarni anglash, madaniyatlararo vaziyatlarda mos kommunikativ strategiyani tanlash hamda kasbiy-pedagogik vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Suhbat va kuzatuv natijalari ham so'rovnoma xulosalarini tasdiqladi. Talabalar o'zbek xalqiga xos hurmat, ehtirom, mehmondo'stlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlarni ingliz tilida izohlashda, xorijiy madaniyat vakillari bilan muloqotda mos nutqiy strategiyani tanlashda, shuningdek, dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan madaniy tushunmovchiliklarga pedagogik yechim taklif qilishda yetarli tajribaga ega emasligi aniqlandi.

Shu asosda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirish jarayonida case-study texnologiyasidan foydalanish zarurligi asoslandi. Chunki case-study texnologiyasi talabalarga real yoki shartli-real kommunikativ vaziyatni tahlil qilish, madaniy va sotsiolingvistik omillarni aniqlash, muqobil yechimlar ishlab chiqish hamda o'z qarorini pedagogik jihatdan asoslash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan amaliy tahlil natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ingliz tili ta'limining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Talabalarning milliy qadriyatlar, umummadaniy tamoyillar, madaniyatlararo muloqot, nutq odobi va sotsiolingvistik vaziyatlar haqidagi bilimlari mavjud bo'lsa-da, ularni ingliz tilida amaliy vaziyatga mos ifodalash,

kommunikativ strategiyani to'g'ri tanlash va pedagogik yechim ishlab chiqish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Dastlabki diagnostik natijalarga ko'ra, respondentlarning 8 foizida milliy va umummadaniy kompetensiyalar yuqori darajada, 42 foizida o'rta darajada, 50 foizida esa past darajada shakllanganligi kuzatildi. Bu holat bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yarmida milliy qadriyatlarni ingliz tilida izohlash, madaniyatlararo muloqotda mos nutqiy birliklardan foydalanish, sotsiolingvistik vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy-pedagogik qaror qabul qilish bo'yicha maqsadli metodik yordamga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni real yoki shartli-real kommunikativ vaziyatlar, madaniy tafovutlar, nutqiy muammolar va pedagogik holatlar asosida tashkil etilganda samaraliroq natija beradi. Shu jihatdan case-study texnologiyasi talabalarning vaziyatni tahlil qilish, madaniy va sotsiolingvistik omillarni aniqlash, muqobil yechim ishlab chiqish hamda o'z qarorini ingliz tilida asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqola doirasida olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni fan dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va baholash mezonlari bilan uzviy bog'lash; ingliz tili mashg'ulotlarida milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, madaniyatlararo muloqot, rasmiy va norasmiy nutq vaziyatlariga oid case-vaziyatlardan tizimli foydalanish; talabalarning madaniy va sotsiolingvistik sezgirlikni oshirish uchun case analysis, case-jigsaw, role-card, Intercultural Case Discussion, Cultural Essay, Case-based Public Speech va Role-based Teaching Situation kabi topshiriqlarni amaliyotga tatbiq etish lozim.

Umuman olganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holatining amaliy tahlili mazkur yo'nalishda maxsus metodik tizim zarurligini asoslab berdi. Case-study texnologiyasiga tayangan yondashuv esa talabalarning milliy o'zlikni anglash, umummadaniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish va kasbiy-pedagogik vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori. 19.05.2021.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. — 278 p.
3. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J.B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth: Penguin Books, 1972. — P. 269–293.
4. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.
5. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.
6. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1993. — 295 p.
7. Hall E.T. Beyond Culture. — New York: Anchor Books, 1976. — 298 p.
8. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. — 2nd ed. — Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. — 596 p.
9. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — 3rd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 410 p.
10. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. — 2nd ed. — New York: McGraw-Hill, 1997. — 288 p.
11. Deardorff D.K. The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. — 2006. — Vol. 10, № 3. — P. 241–266.
12. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. — 5th ed. — New York: Pearson Education, 2007. — 410 p.
13. Tomalin B., Stempleski S. Cultural Awareness. — Oxford: Oxford University Press, 1993. — 160 p.
14. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. — 3rd ed. — Oxford: Oxford University Press, 2011. — 272 p.